BT va STI yo'nalishi II bosqich talabalari uchun

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzular	Mustaqil ta'limga oid savol-topshiriqlar	Bajari-lish muddatlari	Hajmi (soat-da)
Morfema va uning turlari: o'zak va affiksal morfemalar	1-topshiriq. Berilgan so'zlarni ma'noli qismlarga - morfemalarga ajrating. kitobcha, kitobxon, kitoblar; mevali, mevasiz, mevadan; ish, ishli, ishchan, ishlar, ishda, ishim, ishsiz. 2-topshiriq. Berilgan gapdagi so'zlarni morfemalarga ajrating. O'zbek tilida to'g'ri, ravon so'zlash davlatimizning kelajagi va istiqboli bo'lgan siz - yoshlarning burchingizdir. 3-topshiriq. So'zlarni morfemalarga ajratib bo'lmasligi sababini tushuntiring: astoydil, gultojixo'roz, Sirdaryo, qishloq, sovchi, yuksak, yuksal, to'satdan, birdan, zo'rg'a kabilar. 4-topshiriq. O'zingiz hozir tushunilishi(sinxron aspekt)ga ko'ra morfemalarga ajratib bo'lmaydigan o'nta misol toping. 5-topshiriq. So'zlarni tub(morfemalarga bo'linmaydigan) va morfem tarkibli guruhlarga ajrating. Ish, ishchi, ishchilar, ishlar, ishga; suv, suvchi, suvchilar, suvga; toza, tozala, tozalik; oq, oqla, oqlik.	1-2 haftaga	6
So'z va morfema munosabati.	1-topshiriq. Berilgan so'zlarni ikkiga: bog'li va erkin o'zakli morfemalarga guruhlang: kapitalizm, kapitalist, fashizm, ateist, traktorchi, vagonsoz, vagonli, traktorli, ommaviy, qabilaviy, ruhiy, tarbiyaviy, shar'iy, nokas, buyuk, moviy, badaviy, salbiy, ijobiy, sun'iy, madaniy. 2-topshiriq. Bog'li va erkin o'zak morfemalar asosan qanday birliklar (qatlam)ga xosligini ayting va sababini tushuntiring: A)o'z qatlamga oid birlik(leksema)lar uchun xos; V) o'zlashgan qatlam birliklari uchun xos; S) umumturkiy qatlam uchun xos; D) sodda yasama so'zlar uchun xos hodisa; E) qatlamga xos va yasama bo'lishi shart emas. 3-topshiriq. Art, arch, qopqon, qovurg'a, og'riq, ilgari, uvoq, baqir, chaqir, o'kir, bo'kir, o'shqir, qiyqir, qichqir, inda, unda, bo'rdoqi, bo'rla, tog'olcha, sakson, to'qson so'zlarining morfemalarga ajralmas holga kelishi - soddalashuvi sababini tushuntiring. 4-topshiriq. Qayta bo'linish hodisasiga misollar keltiring. 5-topshiriq. Ular, bitish, yurish so'zlaridagi morfologik qayta bo'linish mexanizmini tushuntiring.	3-4 haftaga	4
Shakl yasovchi morfemalar va ularning turlari.	1-topshiriq. Toycha, qopchiq, toychoq, maqtanchoq, qo'zichoq, qizilcha (lavlagi), qorachiq, chug'urchiq so'zlarini ikki guruhga: kategorial forma va nokategorial (funktsional) forma yasovchi affiksal morfemali so'zlarga ajrating. 2-topshiriq.Nokategorial forma yasovchi affiksal morfemalar (FYaAM) deb: a)so'zning lug'aviy ma'nosini o'zgartiradigan FYaAMga aytiladi; v)so'zlararo sintaktik aloqa - munosabatni ko'rsatadigan FYaAMga aytiladi; s)grammatik kategoriyaga qarashli bo'lmagan ma'no, ya'ni so'zlarning ma'lum bir modal ma'nosini ifodalab, ularni biror sintaktik vazifa bajarishi- ga xoslangan shakllarini yasovchi morfemalarga aytiladi; d)so'zlarni o'zgartiruvchi - turlovchi va tuslovchi FYaAMga aytiladi. 3-topshiriq. Ot va fe'llarga qo'shilib ularning nokategorial shakllarini yasaydigan FYaAMning turlarini sanab keltiring. 4-топшириқ. Категориал форма ясовчи аффиксал морфемалар деб: а) предметлик тушунча (маъно)сини ифодалайдиган аффиксал	5-6 haftaga	4

	морфема- ларга айтамиз; в) белги ифодалайдиган сўзлар ясовчи аффиксал морфемаларга айтилади; с)белги ифодалайдиган сўз ясовчи, форма ясовчи аффиксал морфема-ларга айтилади. д) предметлик маъносини ифодалайдиган форма ясовчи аффиксал морфе маларга айтилади; е) категориал шакл ясовчи аффиксал морфема деб бир сўз туркуми-нинг грамматик категориясига хос шаклига айтилади.		
Affiksal morfemalarning shakl va ma’no munosabatiga ko’ra sistemalanishi	1-topshiriq. Berilgan so’zlar tarkibidagi affiksal morfemalarning vazifasiga ko’ra turini aniqlab, ularni sinonimik darajasiga muvofiq guruhlarga ajrating. Yoqimli-yoqimtoy, betoqat-toqatsiz, unumli-unumdor, o’rinli-noo’rin, chopqir-chopog’on, olmalik-olmazor, tuguncha-tugunchak, toychoq-toycha. 2-topshiriq.Affiksal morfemalarning antonimik holatiga misollar topishni davom ettiring. kuchli-kuchsiz, o’rinli-noo’rin, foydali-befoyda, nuqsonli-benuqson, insofli-insofsiz. 3-тopshiriq. O’zak va affiksal morfemalar uchun har birini xarakterlaydigan chizma tayyorlang. 4 тopshiriq.Morfemalarni vazifasi, tarkibi va shakliga ko’ra tavsiflang. gazlashtirilganlardan, paxtalarimizning, mustaqilliklardan. 5 тopshiriq. Morfemalarning polisemantik, omonimik, sinonimik va antonimik turlariga misollar keltiring.	7-9 haftа	4
So’zning grammatik strukturasi.	1-topshiriq. Berilgan so’zlarni FYaS ga ko’ra qismlarga ajrating. Ishlar, ishdan, ishning, ishga,ishim, ishingiz, ishi; Keldi, kelgan, kelgach, kelib, keluv, kelsa. 2-topshiriq. Chap tomonda berilgan FYaAga o’ngda keltirilgan FYaVlardan mosini qo’ying. Ish… -roq hosil… -roq Yaxshi… -dik hosildor… -gan O’yna… -dan hosillan… -dan 3-topshiriq. So’z formasini yasovchi vosita (qo’shimcha)lar turi to’g’ri berilgan javobni toping. A. So’z o’zgartuvchi qo’shimchalar. V. So’zning lug’aviy ma’nosini o’zgartuvchi qo’shimchalar. S. Sof forma yasovchi va so’z o’zgartuvchi qo’shimchalar. D. So’zning sintaktik aloqasini ko’rsatuvchi qo’shimchalar. 4-topshiriq. Chap tomonda berilgan forma yasalish asosiga o’ng tomonda keltirilgan forma yasovchi vositalardan mosini qo’yib chiqing. Ish… -roq. Namuna: Osh… -dan. ish - dan Xiyobon… -imiz. - imiz Yaxshi… -dir. - ga Katta… -di. - lar Uzun… -tir. yaxshi - roq O’yna… -sa - dan qo’l… -ga - ga Tur… -lar - lar	10-11 haftа	6

Morfemalarning tuzilishiga ko’ra turlari	1-топшириқ. Берилган сўзларни морфемаларга ажратинг: аффиксал морфеманинг таркибига кўра содда ва қўшмага ажратинг: ёрдамлаш, фикрлаш, сизлаш, ёғингарчилик, кўпчилик, мўлчилик, одамгарчилик, ўйна, отлан, ёллан, газлаштириш, электрлаштириш. 2-топшириқ. Содда ва қўшма аффиксал морфемаларга ўнтадан мисол келтиринг: («Ўзбек тили морфем луғати»дан фойдаланинг).	12-13 hafta	4
So’z yasalisi va shakl yasalish strukturasi	1-топшириқ. 4 та сўз танлаб, уларни намунадагидек СЯС ва ФЯС га кўра қисмларга ажратинг. тилшуносликдан тилшунослик - дан - форма ясалиш структураси; тилшунос - лик - сўз ясалиш структураси; тил - шунос - сўз ясалиш структураси; ишчиларимиздан ишчиларимиз - дан - чиқиш келишиги формаси; ишчилар - имиз - эгалик формаси; ишчи - лар - кўплик формаси; иш - чи - шахс оти ясовчи форма. 2-топшириқ. Гапдаги сўзларни форма ясалиш структурасига кўра таҳлил қилинг. Бахт ҳавода эсмайди, меҳнатдан келади. (Рўдакий) 3-топшириқ. Гапдаги ясама сўзларни топиб, уларни ясалиш структурасига кўра таҳлил қилинг: Кўча бошида қатиғини пуллаб, идишларини орқалаган аёл кўринди.	14-15	4
So’z yasalishi Derivatsiya Ҳозирги ва тарихий сўз ясалиши. Сўз ясалишида бинарлик муаммолари.	1-топшириқ. Сўз ясаш нега лексик маънонинг янгидан туғилишини назарда тутишини берилган сўзлар воситасида тушунтириб беринг: ўтлоқ, тошлоқ, қишлоқ, қумлоқ, овлоқ, ўроқ, пичоқ, қулоқ, яноқ, дудоқ, қобоқ. 2-топшириқ. Берилган ясалмаларни "ясалиш асоси - ясовчи восита - ясалма"га ажратиб, "ясалма"нинг луғавий маъноси нимадан келиб чиққанини тушунтиринг. Синфдош, юртдош, мактабдош, йўлдош, курсдош; ёнғин, қувғин, қирғин, тўлқин, чопқин; серсув, серунум, серҳосил, сергўшт, сершовқин; қўқонгул, қашқаргул, тошкан сув, чиннигул. 3-топшириқ. Берилган мисолларни таҳлил қилинг ва синхрония билан диахрония муносабатидаги динамика ва статика алоқасини ўз сўзларингиз билан тушунтириб беринг: яноқ, қулоқ, дудоқ, тамоқ, қабоқ, талоқ, чаноқ, туёқ, димоқ, буқоқ; ийак, билак, курак, суяк, тирсак, юрак, буйрак, ичак, милк, канак, киприк; бўйин, биқин, бўғин, бурун, қўйин; қўлтиқ, киндик; манглай, танглай. 4-топшириқ. Ўзакдош ясалмаларда ўзакнинг умумий, аффикснинг хусусий, махсус маъно ифодалашини тушунтиринг. сув-чи > сувчи; сут-чи > сутчи; синф-дош > синфдош; иш-чан > ишчан; иш-ли > ишли; арава-каш > аравакаш; чуқур-лаштириш > чуқурлаштириш; иш-ла > ишла. . 6-топшириқ. Ясовчи билан ясалманинг маъно жиҳатидан боғланиши нимага асосланишини тушунтириб беринг. Ақлли - ақлсиз - беақл - боақл; сабрли – бесабр - сабрсиз - босабр; совунгар - совунчи, бедапоя - бедазор. 7-топшириқ. Берилган ясалмаларни таркибига кўра таҳлил қилиб, уларда	16	4

	ясовчи вазифасини нима бажараётганлигини аниқланг. Бирдан, зўрға, тўсатдан, мақтанганнинг тўйини, керилганнинг уйини кўр, искабтопар, қашқаргул, гулхайри, чиннигул, кўккаптар.		
Сўз ясаш усуллари	1-топшириқ. Семантик усул билан ясалган сўзларни маъно кўчиришнинг қайси йўли билан кўчганлигини айтинг. Ўқ(камоннинг), ўқ(аравaнинг), ўқ(милтиқнинг); эшак(бола), эшак (ўжар одам); қўй(ҳайвон), қўй(ювош одам): тулки(ҳайвон), тулки (айёр одам). 2-топшириқ. Транспозиция усули билан ясалган сўзларни туркумларга оидлигига кўра гуруҳланг. Яхшидан от, ёмондан дод қолади. Аҳмоқ оёғидан қарийди. Гуноҳи не эди бу тилла бошнинг. Оқ олтинни олтин қўллар яратади. Севархон уйига қайтмоқчи. Назирахон қудаларни яхши кутиб олди. Али билан Вали қишлоққа кетди. «Ва» тенг боғловчи. Саодат студент, у ГДУда ўқийди. Бир кулади, бир йиғлайди. . 3-топшириқ. Матнда семантик усул билан ясалган сўзларни аниқлаб, уларнинг маъно кўчириш усулини тушунтиринг. Олтин сўзларни айтдингиз. Ўзбекистон ўз истиқлол йўлидан олға бормоқда. У масала қўйган, у сигнал берган (А.Қ.). Кўз – қўрқоқ, қўл - ботир (Мақол). Раҳбар ишнинг кўзини билиши лозим. Рустам деҳқончиликнинг тилини яхшигина ўрганган.(О.) Дастурхонга боққан дўст эмас.(Мақол) Николай замонида оилам туёқ кўрмаган. (О.) Жамила, сен уй ичининг чўриси бўлма, гули бўл, гули. (Ҳ.Ҳ.) 4-топшириқ. Мисолларда фонетик усул билан сўз ясаётган воситани изоҳланг.Талабалар билан академик Сирожиддинов учрашуви бўлди. Ниҳоят, ўзбек тилининг академик грамматикаси нашр этилади. Олма темир моддасига бой мева. Дастурхондаги таомлардан е, лекин ширинликлар- дан олма. Бувам билан бувим Тошкентга жўнаб кетди. Кўз – кўр. ғич,- ак,- оқ, - лик, - лоқ, -зор, -ма, -дош, -дон, -бон,-қи, -гин. 5-топшириқ. Берилган сўзларни композиция усулининг қайси тури билан ясалганини айтинг.Эру хотин, ўғил-қиз, катта-кичик, борди-келди, ўйин-кулгу, тўй-маърака; хотин-халаж, етим-есир, бой-камбағал; Гулистон Давлат университети, халқ бойлиги, иш хақи, юртбоши, давлат куши; нон-пон, ош-пош, мева-чева; БМТ, СВТ кабилар. 6-топшириқ. Гапларда транспозиция усули билан ясалган сўзларни топиб, қайси туркумдан ясалаётганини аниқланг. Гапнинг бердисини айтгунча шошиласан. Бировини сенга, бошқасини ўзимга мўлжаллаяпман. Тўйнинг бўлади-бўладиси яхши. Яхши топиб гапирар, ёмон қопиб. Қўрқоқ бурун мушт кўтарар.		
Мавзу: Сўз туркумларида сўз ясалиши Сифат	1-топшириқ. Матндаги аффиксация усули билан ясалган сифатларни аниқланг, уларни «ясалиш асоси» ва «ясовчи восита»га ажратинг. Ижодий фаолият, унумли меҳнат, туркий ғазал, ҳосилдор ер, қаровсиз боғ, ёзги таътил, тарбиявий соат, касалманд киши, бадавлат одам, ноўрин сўз, сердаромад тармоқ. 2-топшириқ. Берилган қўшма сифат сўзлар қайси туркум сўзларининг қўшилишидан ясалаётганини аниқланг.Музёрар, кунботар, осмонўпар,		

ясалиши.	бешотар, бодомқовоқ, шерюрак, сарвқомат, қўйкўз; оқбадан, оқбилак, кўккўз, қорасоч, оққўнгил; кулранг, камгап; уч қаватли (бино), қора сочли (қиз), духоба дўппили (йигит). 3-топшириқ. Берилган қўшма сифатларни ясалиш усулига кўра таҳлил қилиб ўз хулосангизни айтинг.А) бодомқовоқ (қиз), оқбилак (ойим);В) тўғри бурчакли (параллелопипед), кўп қаватли (бино);С) бешотар (милтиқ), тезюрар (поезд). 4-топшириқ. Сифатга кўчган сўзларнинг қайси туркумга оидлигини аниқланг. Заҳар одам, тилла бола, шакар қизим, олтин куз, кумуш қиш, ёғоч оёқ; ярашмаган қилиқ, келишган қиз, ўтар дунё, тез одам, оқилона маслаҳатчи, русча китоб, ўзбекча расм-русум.		
Феъл ясалиши.	1-топшириқ. Берилган феъларни туб, содда ва ясама феъларга ажратинг. Феъл ясовчи қўшимчани аниқланг. Олмоқ, бошламоқ, қаратмоқ, с 3-топшириқ.Берилган феъл ясовчи қўшимчалар воситасида содда ясама феъларқаторини тўлдиринг:-ла: аррала, ...-ла: текисла, ...-ла: лапангла, ...-ла: сенла, ...-лан,-лаш: жонлан, суҳбатлаш, ...-а: кона, ...-ай: пасай, ...-сира: сувсира, …-илла,-ира: йилтира, чирқилла, …-ар,-ир: оқар, …-к: кўзик, …ўрамоқ, ташламоқ, кўкармоқ, қучмоқ, қучоқламоқ, юрмоқ, одимламоқ. 2-топшириқ. Берилган гаплардаги феъл сўзларнинг семантик тўдасига кўра қандай маъно ифодалаётганини аниқланг. Дилдорахон уйига кетди. Боланинг ичи кетди. Дилдорахоннинг анор сувига кўнгли кетди. Дорулфанодан дорулбақога кетди.Поезд ўз йўналиши бўйлаб кетди. Дилдора шаҳарга кетди. Абдулла бобо яхши юрибдиларми, қулоғимга кетди-кетди деган гаплар чалинди? Машина юриб кетди. қушлар жанубга томон кетди. 3-топшириқ. Гаплардаги қўшма феъларни топинг, таркибини аниқланг. Аҳмад салом берди. Дурдона жавоб берди. Ширин салом-алик қилсанг, ширин дуо оласан. Синф раҳбари қўл қўйилган аризани ўқитувчига берди.		
Равиш ясалиши.	1-топшириқ. Берилган равишларни туб ва ясама равиш гуруҳларига ажратинг. Энди, эрталаб, мардона, ҳамиша, тахминан, йиллаб, юзларча, сидирғасига, лутфан, ёппасига, ватанпарварларча, деҳқончасига, ҳафталаб, батамом, узил-кесил, дўстона, атайлаб, бирдан, зўрға. 2-топшириқ. Матндаги ясама равишларни топиб, уларни ўзак ва қўшимчаларга ажратинг. Битирув кечамиз шодиёнасига сизларни лутфан ва қалбан таклиф этамиз. Мастура кўзларини маккорона ўйнатиб, жавоб берди.(О.) Мардона ишладик, зафарлар қучдик. Мардларча курашмоқ мардларнинг иши. 3-топшириқ. Равиш ясовчи қўшимчалар воситасида янги ясама равишлар қаторини давом эттиринг. -ча:янгича,...-ларча:мардларча,..-часига:тошкентчасига,...-ига,-сига:узунасига,ёнгинасига,баробарига,...		

	-лаб:эрталаб, гектарлаб,...-она:шоирона,... -ан:мажбуран,...-гача:ҳалигача,... -симон:ҳазилсимон,...-намо:уялганнамо,... -лай:хомлай,.. -н(-ин,-):эртан,олдин,... . 4-топшириқ. Равишларнинг жуфтлашувидан пайдо бўлган маъно ифодаланишини тушунтиринг. олдин-кейин, аста-секин, секин-аста, нари-бери, бирин-кетин, бугун-эрта, эрта-кеч.		